

TURKISTONLIK ZIYOLILARNING GERMANIYADAGI FAOLIYATI

Gulnora Ahmedova,

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi
35-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

XIX asr oxiri va XX asr boshlari yurtimiz tarixida Turkistonda milliy uyg'onish davrining murakkab jarayonlari, jadidchilik harakatlarining sodir bo'lishi bilan bog'liq davr sifatida o'ziga xos iz qoldirgan. Ushbu harakatlar millatimiz tarixida "milliy uyg'onish" davriga tegishli bo'lgan "jadidchilik harakatlari" nomi bilan muhrlangan bo'lib, bu harakatlarga Turkiston o'lkasiga 1884-yillarda tashrif buyurgan Ismoil Gaspirali boshchilik qilganligi barchamizga ma'lum.

Ismoil Gaspirali boshchiligidagi harakatlar Toshkent, Samarcand va Buxoro shaharlarida yangi usuldagagi maktablarning ochilishi bilan boshlangan. Jadidchilik tarixiga oid manbalarda maktablarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li singari Vatanimizning ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan yetuk olimlarning faoliyat yuritganligi haqida yetaricha ma'lumot berilgan. Shuningdek, ushbu adabiyotlarda asosiy maqsadi Turkiston o'lkasini har tomonlama taraqqiy ettirish hisoblangan jadidlarning zamonaviy ilmlarni egallashlariga ham alohida e'tibor qaratganliklari, shu sababli, 1922-yillarida Turkiston o'lkasining 60 nafar mana shunday iqtidorli yoshlari Germaniyaga yuborilganligi bilan bog'liq bir qancha axborotlar bilan tanishish mumkin.

Maktab darsliklarida ham jadid adabiyoti vakillaridan biri hisoblangan Abdurauf Fitratga oid berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1921-yilda Fitratning Buxoroga kelishi, shundan so'ng yoshlar aynan shu kishining tashabbusi bilan Germaniyaga o'qishga yuborilganligi haqida yozilgan[1].

O'rganilgan ma'lumotlarga asosan ular orasida 1921-1922-yillarda Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi" a'zosi hisoblangan faol yoshlardan Saidali Usmonxo'ja, Ahmad Shukuriy, Vali Qayumxon va Sattor Jabbor ham bor bo'lgan [4].

Shuningdek, o'sha davrda yurtimizning turli sohalariga o'zining hissasini qo'shishni niyat qilib Germaniyaga otlangan talabalar haqida adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Shereli Turdiyev ham ko'plab ma'lumotlarni to'plab "Ular Germaniyada o'qigan edilar" [2] nomli kitobni nashr ettirganlar.

B. Qosimovning "O'zbek adabiyoti va adabiy aloqlari" nomli o'quv qo'llanmasida esa mavzu bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: "1918-yilda Fitrat tayyorlagan, 1920-yilda F.Xo'jayev chuqurlashtirgan "Yosh buxoroliklar partiyasi" dasturi "Zulmga qarshi birlashingiz!" degan shior bilan boshlanar edi. Unda muhim nuqtalardan birini "Buxoroda yangi usul maktablar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, Buxoro xalqining siyosiy, iqtisodiy, sotsial va madaniy saviyasini yoppasiga ko'tarish maqsadida yosh buxoroliklarni Yevropaga o'qishga yuborish" tashkil qilar edi. Yana biri esa "Buxoro ajnabiylarining Buxoroning ichki hayotiga aralashuvidan ozod qilish" edi" [3].

Ushbu maqolada mana shunday turkistonlik iqtidorli yoshlarning Germaniyadagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ayrim ma'lumotlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Sattor Jabbor Germaniyada bo'lgan davrida dastlabki faoliyatini til o'rganish bilan boshlaydi. O'rta maxsus ta'limni Berlinda olgan yosh talaba 1925-1927-yillarda Geydelberg universitetida, 1928-1931-yillar Berlin universiteti kimyo fakultetida o'qiydi. So'ng 1930-yil SSSR talabalar uchun pul yuborishni to'xtadi, ushbu vaziyatdan chiqish uchun u Berlin universiteti laboratoriyasida nemis professorlariga yordamchi sifatida faoliyat yuritib, oxirgi yili uchun pulni Aleksandr Gumbolt fondidan to'lab berilishiga erishadi. Sattor Jabbor 1931-yil O'zbekistonga qaytib kelib, kimyo fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida nom qoldiradi.

Germaniyaga o'qish uchun yuborilgan yana bir umidli yosh talaba Xayriniso Majidxonova [5] ham o'zining iqtidori bilan alohida ajralib turgan. Xayriniso Majidxonova 1923-1924-yillarda Berlinda "Xorijliklar uchun nemis tilini o'rganish" maktabida o'qib, o'rta ma'lumot to'g'risida shahodatnomani olgan, shundan so'ng 1924-1926-yillarda Darmstadt (Darmstadt)

o'qituvchilar seminariyasida nemis tili va adabiyoti yo'nalishida ta'limni davom ettirgan. 1926-1928-yillarda amaliyotni Berlin shahridagi o'quv muassasalarida o'tab, o'rta maxsus ma'lumot olgani to'g'risidagi diplomni qo'lga kiritadi. Keyinchalik u Berlinda pedagogik amaliyot bilan bir paytda mashhur doktor Fekkelmanning tibbiyat xodimlarini tayyorlovchi xususiy maktabida ham tahsil oldi.

Xayriniso Majidxonova 1928-yili O'zbekistonga qaytib, Toshkentdagi Kasaba uyushmalar Markaziy Qo'mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang'ich va umumta'lim o'qituvchilarining dam olish uyida shifokor bo'lib ishlay boshladi.

1935-yili Toshkent tibbiyat institutini bitirgan Xayriniso o'qituvchilar dam olish uyida vrach-terapevt hamda Fayzulla Xo'jayev nomidagi O'zbek poyabzal tresti ambulatoriyasida shifokor-vrach bo'lib ishlaydi.

Oldiga qo'ygan buyuk maqsadlar yo'lidan borayotgan Xayriniso Majidxonova navqiron 32 yoshida totalitar tuzumning qonli qatag'oni girdobiga tortildi. U hali oila qurib ulgurmagandi.

Ilmiy adabiyotlarda Xayriniso Majidxonovadan tashqari qizlardan Maryam Sultonova, Saida Shermuhammad qizilar ham Germaniyadan tahsil olish uchun yuborilganligi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, bu qizlar Germaniyaga Toshkentda 1920-yilda mashhur ma'rifatparvar Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan tashkil qilingan "Ko'mak" uyushmasining yordami bilan jo'natilgan degan taxminlar ham mavjud.

Xorijga ta'lim olish uchun yuborilgan yoshlar ichida Abdulvahob Murodiy ham bor edi. Sh.Turdiyevning "Ular Germaniyada o'qigan edilar" nomli maqolasida A.Murodiy haqida quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: "Murodiy Abdulvahob 1901-yilda tug'ilgan. O'zbek. Qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi agronomi. Toshkent shahar, Birinchi Egarchi mahallasi. Xotini – Martova, qizi – Maryam, ukasi Abdulqodir, singlisi – Sohiba. 1930-yil 25-aprelida hibsga olingan. "Milliy Istiqlol" a'zosi va uning fikrlarini targ'ib qilishda, xorijda bo'lgan va vaqtida Sovetlarga qarshi millatchilik ishlarida qatnashganlikda ayblangan. OGPU kollegiyasining 1935-yil 25-apreldagi Abdulvahob Murodiyni otish haqida chiqarilgan qaror o'n yillik qamoq jazosi bilan almashтирilgan" [5].

Ko'rib turganingizdek, jadidchilik harakatlari davrida bir qancha yurtdoshlarimiz Vatanimizni har tomonlama rivojlantirish uchun xorijga yuborilgan bo'lib, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, ular orasida o'sha yerda qolib ketganlari ham bo'lganligini, aksariyat qaytib kelganlar esa qatl etilganligi achinarli holdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yurtimiz tarixida jadidchilik harakati bilan bog'liq olib borilgan ishlar o'sha davr uchun juda zarur hisoblangan, millatning uyg'onishi, taraqqiy etishi, o'zligini anglashi mana shunday fidoyi insonlarning mehnatlari, xizmatlari yordami bilan amalga oshiriladi. Yangi avlod tarbiyasini bunday insonlar hayoti, ularning yurt ozodligi va taraqqiyoti uchun qo'shgan hissalarini ibrat qilib ko'rsatgan holda olib borish yurt ozodligiga erishishning murakkab bosqichlarini teranroq tasavvur etish, uni qadrlash bilan bog'liq insoniy burchlarni chin dildan ado etish, vatanga sodiq bo'lish his-tuyg'ularining paydo bo'lishida juda muhim omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot. 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. Turdiyev, Sherli (1992). Ular Germaniyada o'qigan edilar. "Sharq yulduzi" jurnali. – Toshkent, 1992 yil, 10-son.
3. B. Qosimov. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
4. Bahrom Irzayev. O'zbekiston xalq harakati. – Toshkent.
5. [https://tarjimon.uz/Turkiston jadidlari](https://tarjimon.uz/Turkiston_jadidlari): Germaniyadan qaytgach otilgan yosh shifokor Xayrinisa Majidova.